

Innovatsion g'oyalar haftaligida

GIM fakulteti Suv xo'jaligi melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi 101-guruh talabalari innovatsion g'oyalar haftaligida ishtirok etdilar. Unda xalqaro innovatsiyalar yarmarkasi, xalqaro innovatsion investitsion forum, xalqaro robototexnika musobaqasi, "APCTT-ESCAP" mintaqaviy seminari tashkil etildi.

Innovatsion g'oyalar haftaligida ishtirok etgan talabalarimiz qishloq xo'jaligi texnikalarini takomillashtirish uchun yaratilgan yangi texnologiyalar, dasturlar, ishlanmalar bilan tanishdilar. Guruh rahbari S.Xolova bu borada institutimizda hamda kafedrada olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirdi va talabalarni qiziqtirgan savollarga javob berdi. Mavjud sohalarni qamrab olgan haftalik katta taassurotlar baxsh etdi.



"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasida stajyor-o'qituvchisi Sarvinoz Xolova axboroti
Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov